

## "Kapitalbank"

### AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

**2022-yil 1-dekabrda Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini e'lon qiladi.**

#### **Hurmatli aksiyadorlar!**

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi: Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch. 1. "Kapitalbank" ATB Yashnabod filialida.

E-mail [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz), veb-sayt [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz).

Ro'yxatdan o'tishning boshlanishi - soat 13:30 da.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining boshlanish vaqti - soat 14:00 da.

" Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati **2022-yil 25-noyabr** holatiga ko'ra bank aksiyadorlari reestriga muvofiq tuziladi.

#### **Kun tartibi:**

- 1. Har birining nominal qiymati 950 so'm bo'lgan, umumiy nominal qiymati 38 000 000 000 so'm bo'lgan 40 000 000 dona miqdordagi imtiyozli aksiyalarni, ularni bekor qilish va ularning o'rniga 40 000 000 dona, har birining nominal qiymati 950 so'm bo'lgan, umumiy nominal qiymati 38 000 000 000 so'mga teng oddiy nomli hujjatsiz aksiyalarni chiqarish orqali konvertatsiya qilish to'g'risida (09.10.2020-yildagi P0314-19-sonli chiqarilish).*
- 2. Har birining nominal qiymati 950 so'mdan, umumiy nominal qiymati 38 000 000 000 so'm bo'lgan 40 000 000 dona yigirma uchinchi chiqarilishdagi oddiy nomli hujjatsiz aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi Qarorni tasdiqlash to'g'risida.*
- 3. Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash, dividendlar miqdori, to'lov shakli va tartibi to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida.*

**Eslatma:** aksiyadorning Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishidagi vakili vakil haqidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) ko'rsatilgan yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlanishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.